



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

Road

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixojaga o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdulkarimova Dinara Rustamxanovna

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИСЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVATION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abdusalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIYAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
Madraximov Ilxom Kamilovich	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
Zaripov Xusan Baxodirovich	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
Jalilov Jamshid G'anijonovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
Qulliyev Anvar Zayniddinovich	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
Alimov Umid O'ktambayevich	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI PASPORTI TIZIMINI JORIY ETISH OMILLARI VA TO'SIQLARI.....	200
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI.....	207
Ernazarov Ortiq Eshnazarovich, Farog'at Xo'jabekova	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ БЛАГОСОСТОЯНИЕ, А ТАКЖЕ НОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ.....	212
Останов Эгамберди	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASH: MOHIYATI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI.....	218
Xakimova Xulkar Xamidovna	
QORAQALPOG'ISTON VA XORAZM OZIQ-OVQAT SANOATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HAMDA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	224
Tleuov Niyetulla Raxmanovich	
OILAVIY KORXONALARNING IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI.....	230
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna, Rustamova Zarina Rustamovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	234
Sadikov Shoxrux Shuxratovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARNING AHAMIYATI.....	238
Asenbaeva Aydaygul Edenbaevna	
BARQARORLIK VA YASHIL MENEJMENT: ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY AHAMIYATI.....	242
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



HUDUDLARNING IQTISODIY SALOHİYATINI INNAVATSION-INVESTITSION BOSHQARISH STRATEGIYASI VA MEXANIZMI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	247
Maqsudova Malohatxon Maqsudovna, Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETINI 2026-YILGI SOLIQ SIYOSATINING TAHLILI VA XALQARO SOLISHTIRMA YONDASHUVI	251
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	256
Mamataliyeva Dilnoza Raxmonovna	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA INVESTITSİYALAR SHAKLLANISHI VA ULARNI SAMARALI BOSHQARISH YO'NALISHLARI	259
To'rayev Jasurali To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA SAVDO TASHKILOTLARINING FAOLIYATI VA RIVOJLANISH HOLATI	264
B. Sulaymonov	
NAMANGAN VILOYATIDA "YASHIL IQTISODIYOT" MODELIGA O'TISH JARAYONIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLIGI	270
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	274
Xoshimov Pazliddin Zuxurovich	
KICHIK BIZNES ORQALI ISH O'RINLARINI YARATISH STRATEGIYALARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	278
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
MAMLAKATIMIZDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	283
Quryozov Sardorbek Sharifboevich	
РАЗРАБОТКА И ПРИОРИТИЗАЦИЯ КЛЮЧЕВЫХ ИНДИКАТОРОВ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЛЯ ОБЩЕНАЦИОНАЛЬНОЙ ПАНЕЛИ МОНИТОРИНГА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БОЛЬНИЦ: ЭКСПЕРТНАЯ ОЦЕНКА СО СТОРОНЫ РУКОВОДИТЕЛЕЙ МЕДУЧРЕЖДЕНИЙ	290
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYAT ORGANLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	297
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
BANK TIZIMINING BARQAROR MOLIIYAVIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH VOSITALARI	303
Sadikov Iskandar Gayratovich	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	308
Халиков С. Х.	
HUDUDIIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNI ROLI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORALARI	313
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС СТАНОВЛЕНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	317
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	321
Isakov Oybek Jamoliddinovich	
NORASMIY KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINING FERMER XO'JALIKLARI YETISHTIRGAN MAHSULOT MIQDORIGA TA'SIRINI BAHOLASH	325
Ismoilov Azamat	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA FOIZ RISKINI BOSHQARISH AMALIYOTI	332
Seitnazarov Daniyar Baxadirovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SUT VA SUT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLOVCHI KORXONALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	341
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
"AYOL RAHBARLAR: RAHBARLIK SALOHİYATI VA ISH JOYIDA TENGLIK" FRANSIYA DAVLATI TAJRIBASI ASOSIDA	346
Abduraxmonova Feruzabonu	



QISHLOQ XO'JALIGIDAGI KLASSTERLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	352
Dildora Yuldasheva	
TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT BAZASINING YETARLILIGINI TA'MINLASH YO'LLARI	359
I.J. Isakov	
OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA IQTISODIY DIAGNOSTIKA O'TKAZISHNING XORIJ TAJRIBASI	363
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich, Axmedov Oybek Turg'unpulatovich	
INKLYUZIV TA'LIMNI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISH YO'LLARI.....	369
Egamberdiyeva Dilorom Botir qizi, Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
"KREATIV IQTISODIYOT" HAMDA "TURIZM" TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	374
Abdurasulov Shovqiddin Erkin o'g'li	
THE STRATEGIC ROLE OF THE INDUSTRIAL SECTOR IN THE NATIONAL ECONOMY AND DEVELOPMENT FACTORS.....	380
Rakhimov Bakhromjon Ibroximovich	
INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	386
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
GLOBAL INCOME INEQUALITY IN 2024: CAUSES, PATTERNS, AND CONSEQUENCES.....	393
Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
ТОРГОВЫЕ ОТНОШЕНИЯ В СВОБОДНО ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОНАХ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ	401
Шарифходжаев Шавкат Окилович, Ачилова Ширин Шавкат кизи	
O'ZBEKISTON KON-METALLURGIYA SANOATI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HOZIRGI HOLATI	407
Ergashov Botirjon Ergashovich	
PENSIYA JAMG'ARMASIDA DAVLAT BUDJETI TRANSFERTLARI ULUSHI HAMDA UNING XORIJ TAJRIBASI	415
Sherjonov Doniyor Saparbayevich	
O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARINI QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDAN FOYDALANIB MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI.....	419
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I BO'YICHA FIRIBGARLIKLAR: MEXANIZMLARI, SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI.....	425
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA QISHLOQ XO'JALIGINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	431
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
TURIZM SOHASINING IJTIMOIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....	435
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
SANOATDA IQTISODIY MOLIYAVIY HISSOBOTLAR XALQARO STANDARTLARINI RAQOBATBARDOSH KORPORATIV STRATEGIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA QO'LLASH.....	442
Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li	
ФОНДИРОВАНИЕ И СТРАХОВАНИЕ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ АПК: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	447
Дурманов Акмал Шаймарданович	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI RIVOJLANISHINING STATISTIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	456
Atajanova Guli Maxsudbekovna	
JAHON MOLIYAVIY BOZORLARI BARQARORLIGIGA GLOBAL IQTISODIY INQIROZLAR VA GEOSIYOSIY OMILLARNING TA'SIRI HAMDA ULARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI	462
Abdurazakova Nargiza Rixsibayevna	



QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA BOSHQARUV QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI.....	467
Mamadiyarov Dilshad Uralovich	
PAXTA TOZALASH KORXONALARINING TARKIBIY BO'LINMALARIDA MOLIYAVIY BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	474
Murodov Orif Jumayevich, G'ulomov Xaydarbek Ilyos o'g'li	
BARQAROR KELAJAK SARI: MAMLAKATDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI MUSTAHKAMLASH	482
Abdullaev Shavkatjon Maxmudillaevich	
ZAMONAVIY IQTISODIY SHAROITLARDA KORXONALARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH	487
Abdulakimova Moxina Farxod qizi	
UMUMIY OVQATLANISH SHAHOBCHALARINING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH.....	493
Amiriddinova Muslima Zayniddin qizi	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA MIJOZLAR EHTIYOJINI O'RGANISH VA XIZMAT SIFATINI OSHIRISHNING INNOVATION YONDASHUVLARI	498
Babayeva Lola Ibragimovna	
MINTAQADA TARIXIY VA MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHDA DAVLAT HAMDA XUSUSIY SHERIKCHILIK TIZIMIDAN FOYDALANISH	504
Xusanov Chari Kadirovich	
PROSPECTS FOR IMPROVING INFRASTRUCTURE FOR SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	509
Botirova Xulkar Olimjonovna	
THE IMPACT OF AGRICULTURAL CLUSTERS ON FOOD SECURITY AND MACROECONOMIC STABILITY	514
Sherkulov Shohruh Erkin ugli	
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISSIQXONA IQTISODIYOTINI O'RNI VA NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLAR	520
Otavullaev Sukhrob Sa'dullo o'g'li	
IJTIMOY AHAMIYATI YUQORI LOYIHALARNI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	524
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	



DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Taspanova Ayzada Kenjebayevna

Qoraqalpoq davlat universiteti

“Menedjment va iqtisodiyot asoslari” kafedrası dosenti (PhD)

Email: taspanovaayzada@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat–xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmining ijtimoiy ahamiyatli loyihalardagi oʻrni, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish boʻyicha taklif hamda tavsiyalar yoritilgan. Shuningdek, DXSh loyihalarini samarali boshqarishning institutsional, tashkiliy va iqtisodiy jihatlarini tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: davlat–xususiy sheriklik (DXSh), ijtimoiy infratuzilma, loyiha boshqaruvi, investitsiya, risklarni taqsimlash, iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy mexanizmlar, tender jarayoni, monitoring va audit.

Abstract. This article highlights the role of public–private partnership (PPP) mechanisms in socially significant projects, existing problems, and proposals and recommendations for addressing them. It also analyzes the institutional, organizational, and economic aspects of effectively managing PPP projects.

Key words: public-private partnership (PPP), social infrastructure, project management, investment, risk sharing, cost-effectiveness, financial mechanisms, tender process, monitoring and audit.

Аннотация. В данной статье раскрыта роль механизма государственно-частного партнёрства (ГЧП) в социально значимых проектах, существующие проблемы, а также предложения и рекомендации по их устранению. Кроме того, анализируются институциональные, организационные и экономические аспекты эффективного управления проектами ГЧП.

Ключевые слова: государственно-частное партнерство (ГЧП), социальная инфраструктура, управление проектами, инвестиции, распределение рисков, экономическая эффективность, финансовые механизмы, тендерный процесс, мониторинг и аудит.

KIRISH

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda iqtisodiy islohotlarning asosiy yoʻnalishlaridan biri ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga xususiy sektorni yanada keng jalb etishdan iborat boʻlib, bunda davlat–xususiy sheriklik muhim vosita sifatida shakllanmoqda. DXSh modeli nafaqat budget yukini kamaytiradi, balki ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va boshqaruv samaradorligini taʼminlashga xizmat qiladi. Jahon iqtisodiyotida xizmat koʻrsatish sohasi oʻzining beqiyos ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, shuningdek, ushbu sohada davlat–xususiy sheriklik (DXSh) munosabatlarning oʻziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Bu holat xizmat koʻrsatish sohasining milliy iqtisodiyot tarkibidagi oʻrnini mustahkamlaydi. Xususan, rivojlangan mamlakatlarning yalpi ichki mahsulotida xizmat koʻrsatish sohasining ulushi 60–80 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, ilm-fan va innovatsion faoliyatni moliyalashtirishga yoʻnaltirilgan investitsiyalar hajmi YAIMga nisbatan 3,0 foiz atrofida boʻlib, ushbu mablagʻlarning qariyb 2/3 qismi xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) ijtimoiy infratuzilmalarni boshqarish va modernizatsiya qilishda samaradorlik, moliyaviy barqarorlik hamda innovatsion boshqaruv usullarini integratsiya qilishga imkon beruvchi mexanizm sifatida jahon iqtisodiy adabiyotida keng oʻrganilgan. E. Yescombe DXShning institutsional mohiyatini tahlil qilib, samarali sheriklik uchun shaffof risk taqsimoti, mustahkam huquqiy baza va uzoq muddatli shartnoma intizomi zarurligini taʼkidlaydi. Unga koʻra, ijtimoiy loyihalarda davlatning kafolat mexanizmlari investor ishonchini shakllantiruvchi hal qiluvchi omildir.



G. Hodge va C. Greve o'z tadqiqotlarida DXShni faqat moliyalashtirish vositasi sifatida emas, balki davlat xizmatlarini strategik yetkazib berish modeli sifatida baholab, loyihalarning ijtimoiy natijadorligi, hisobdorligi va foydalanuvchilar qoniqishi ko'rsatkichlari bo'yicha baholash tizimlari yetarli darajada takomillashmagan mamlakatlarda DXSh kutilgan samarani bermasligini ta'kidlaydi. Ular ijtimoiy sohada DXShni joriy etishda monitoring, shartnoma intizomi va mustaqil baholovchilar rolini alohida ko'rsatadi.

OECDning davlat boshqaruvi bo'yicha tahlillari ijtimoiy ahamiyatli loyihalarda DXSh modeli eng samarali bo'lishi uchun loyiha tanlashdan boshlab ekspluatatsiya bosqichigacha bo'lgan butun sikl bo'yicha qiymat-uchun-qiymat (Value for Money) baholash zarurligini qayd etadi. Tashkilot ekspertlari davlatning haddan tashqari kafolat berishi yoki risklarni nomutanosib o'z zimmasiga olishi natijada DXSh loyihalarida fiskal barqarorlikka tahdid paydo bo'lishini ko'rsatib o'tadi.

World Bank PPP Group tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda infratuzilma kam rivojlangan davlatlarda asosiy muammolar sifatida loyihalash bosqichidagi noaniqliklar, risklarni noto'g'ri taqsimlash, tender jarayonlaridagi shaffoflik yetishmasligi va kadrlar salohiyatining pastligi e'tirof etilgan. Shuningdek, ular ijtimoiy ta'lim, sog'liqni saqlash va kommunal xizmatlar kabi sohalarda DXShning muvaffaqiyati davlat tomonidan aniq regulyativ ko'rsatmalar va natijaga yo'naltirilgan kontrakt tizimiga bog'liq ekanini asoslaydi.

Rivojlanayotgan davlatlar misolida A. Akintoye DXShning moliyaviy arxitekturasini tahlil qilib, bank kreditlash mexanizmlarining zaifligi, kafolatlar tizimining cheklanganligi va kapital bozorlarining rivojlanmaganligi ijtimoiy loyihalarda xususiy sektor ishtirokini cheklovchi omillar ekanini ta'kidlaydi. Olim shuningdek, risklarni baholash metodologiyalari va loyiha boshqaruviga zamonaviy yondashuvlar (PMI, PRINCE2, CPM)ning joriy etilishi samaradorlikni oshirishini ko'rsatadi.

O'zbekistonda DXShni rivojlantirish bo'yicha akademik tadqiqotlar, jumladan A. Turaev va A. Nigmonov tomonidan olib borilgan ishlarda milliy tajriba, huquqiy islohotlar, tender mexanizmlarini takomillashtirish, ijtimoiy sohalarda xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish masalalari yoritilgan. Ularning fikricha, ijtimoiy loyihalarda samaradorlik ko'p jihatdan davlat organlari o'rtasidagi muvofiqlashtirish darajasi, normativ baza barqarorligi va xarajat-foyda tahlillarining professional darajada olib borilishiga bog'liq.

B. Abduraimov DXShning iqtisodiy mexanizmlarini o'rgangan holda, loyihalarda risklarni taqsimlash bo'yicha yagona standartlarning yo'qligi, xususiy sektor uchun uzoq muddatli moliyaviy instrumentlarning rivojlanmaganligi hamda tashkilotlar o'rtasidagi funksional bo'linishlar samaradorlikni cheklayotganini asoslaydi.

Xalqaro tajribalar tahlili, xususan Buyuk Britaniya, Kanada va Janubiy Koreya amaliyotlari shuni ko'rsatadiki, DXSh modeli ayniqsa ijtimoiy ahamiyatli loyihalarda samarali ishlashi uchun mustaqil audit, shaffof baholash mexanizmlari va raqamlashtirilgan monitoring tizimlari majburiy talablardan biridir. Iqtisodchi olim M. Grimsey davlatning haddan tashqari optimistik prognozlar bilan shartnomalar tuzishi natijada ko'plab loyihalarda xarajatlarning oshishi va ijtimoiy foyda pasayishi holatlari yuzaga kelganini ta'kidlaydi.

Adabiyotlar sharhi umumlashtirilganda, ijtimoiy loyihalarda DXShning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liqligi ko'rinadi: institutsional ishonchlilik, shaffof raqobat mexanizmlari, risklarni adolatli taqsimlash, uzluksiz monitoring-audit jarayonlari, davlat kafolatlari va professionallikka asoslangan loyiha boshqaruvi. Bu omillarning uyg'unligi DXSh asosidagi ijtimoiy loyihalarda barqaror natijalarga erishish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi ijtimoiy ahamiyatga ega DXSh loyihalariga oid normativ hujjatlar, xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari, ilmiy nashrlar hamda amaliy loyihalar bo'yicha ochiq statistik bazalar tahliliga asoslandi. Ma'lumotlar kontent tahlili, taqqoslash, qiymat-uchun-qiymat baholash yondashuvi va institutsional tahlil yordamida qayta ishlanib, asosiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon iqtisodiyotida ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va inson kapitali samaradorligini oshirishda ijtimoiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, aholi farovonligini oshirish, ijtimoiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar, avvalo, moliyaviy barqarorlik va samarali boshqaruvni ta'minlashga qaratilgan. So'nggi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning strategik dasturlari doirasida ijtimoiy davlatni rivojlantirish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy sohada xizmatlarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotchi ijtimoiy xizmatlar sohasini rivojlantirish nazariyasi va amaliyotidan kelib chiqib, ijtimoiy xizmatlarga iqtisodiy tizimda iste'molchilarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan iqtisodiy subyektlar (davlat, xususiy va nodavlat sektorlari) tomonidan

ko'rsatiladigan pullik va bepul xizmatlar turi sifatida ta'rif bergan. Bunday ta'rifning kiritilishi ijtimoiy xizmatlarning iqtisodiy tizimga xizmat ko'rsatish sohasidagi o'rnini aniqlash va uning murakkab kompleks kategoriya ekanligini tushunish imkonini beradi.


Bu borada quyidagilar uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish zarurligiga asos bo'lib xizmat qilishi isbotlandi:

- tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar va ularning tarkibi;
- ijtimoiy xizmatlar resurslari;
- ijtimoiy xizmatlar bozorida xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlari;
- rivojlanish konsepsiyasi;
- ijtimoiy xizmatlar sohasi turlarining tasnifi;
- O'zbekistonda ijtimoiy xizmatlar.

Hozirgi sharoitda DXSh tizimini yanada rivojlantirish uchun mavjud jarayonlarni metodik takomillashtirish imkoniyatlari kengdir. Normativ-huquqiy baza bosqichma-bosqich yangilanib, DXSh jarayonlarini yanada aniqroq tartibga solishga xizmat qilishi kutiladi. Mas'ul organlar faoliyatining o'zaro integratsiyasini kuchaytirish orqali loyiha boshqaruvi jarayonlarida yagona yondashuv shakllanishi, hamkorlik samaradorligi oshishi prognoz qilinadi. Risklarni taqsimlash bo'yicha yagona standartlarni ishlab chiqish investorlar uchun barqaror institutsional muhit yaratib, loyihalar ishonchligini mustahkamlashi mumkin.

Xususiy sektorni ijtimoiy sohalarga jalb etish mexanizmlarining takomillashuvi yangi investitsion oqimlarni shakllantirishi, shu orqali ijtimoiy infratuzilma modernizatsiyasiga turtki berishi kutiladi. Bank kreditlari va kafolatlar tizimining rivojlanishi esa DXSh loyihalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Loyihalarni boshqarish bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish natijasida zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini chuqur egallagan mutaxassislar soni ortishi, bu esa loyihalar sifati va natijadorligini oshirishi prognozlanadi.

Shuningdek, PMI, PRINCE2, CPM, Agile kabi ilg'or metodologiyalarning amaliyotga keng tatbiq etilishi DXSh jarayonlarining shaffofligi, tezkorligi va moslashuvchanligini ta'minlashi mumkin. Natijadorlikka yo'naltirilgan baholash mexanizmlarini kuchaytirish esa loyihalar samaradorligini tizimli o'lchashga va boshqaruv qarorlarini asoslangan holda qabul qilishga imkon yaratadi. Mustaqil monitoring va nazorat institutlarining rivojlanishi shartnoma majburiyatlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishini qo'llab-quvvatlab, DXSh tizimining umumiy ishonchligini oshirishi prognoz qilinadi (1-rasm).



1-rasm. Ijtimoiy xizmatlar sohasining resurslari¹

1 Muallif ishlanmasi



Mahsulotlarni yaratish va ehtiyojlarni qondirish bir vaqtning o'zida sodir bo'lmaydi, chunki iste'mol ishlab chiqarishdan keyin keladi. Biroq ijtimoiy xizmatlar sohasida shunday xizmatlar mavjudki, ularning yaratilishi bir vaqtning o'zida muayyan resurslar ishtirokida ehtiyojni qondirishni anglatadi. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish jarayonlarida foydalanish mumkin bo'lgan barcha vositalar va imkoniyatlar yig'indisi sifatida resurslarning ishtiroki alohida ahamiyatga ega.

Ijtimoiy xizmatlar sohasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, tizimlilik nuqtayi nazaridan uning faoliyat ko'rsatishining asosiy yo'nalishlarini ijtimoiy yordam, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy xizmatlar kabi muhim faoliyat turlariga ajratish mumkin, degan xulosaga kelindi. Ular birgalikda ijtimoiy soha iqtisodiyoti majmuini tashkil etadi va markazida inson turgan, inson farovonligini ta'minlashga qaratilgan turli funksiyalarni bajaradi. Ijtimoiy xizmatlarga bag'ishlangan qonunchilik va qonunosti me'yoriy hujjatlar ularning shakllanishi va faoliyat ko'rsatishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Xususan, fuqarolarning Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari o'z-o'zidan ijtimoiy xizmat ko'rsatish obyektlarini yaratish va ularning faoliyat ko'rsatishini hayotiy zaruratga aylantiradi.

Ushbu resurslarning qariyb 65 foizi aynan xizmat ko'rsatish sohasida amalga oshirilayotgan davlat–xususiy sheriklik loyihalari hisobidan jalb etilmoqda. Natijada, zamonaviy iqtisodiy modelda davlat va xususiy sektor hamkorligini yanada chuqurlashtirish, ayniqsa, xizmatlar bozorida innovatsion yechimlar va barqaror rivojlanish mexanizmlarini joriy etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada xizmat ko'rsatish sohasida davlat–xususiy sheriklik mexanizmlarini samarali tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda xizmat ko'rsatish sohasini barqaror rivojlantirish, xizmat turlarini zamonaviy va innovatsion shakllarda tashkil etish hamda sohada ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirishda davlat–xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida 2024 — 2030-yillarda davlat–xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-308-son² qaroriga muvofiq, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tuzilmasida umumiy shtat birliklari doirasida davlat muassasasi shaklidagi "Davlat–xususiy sheriklik loyihalari markazi" loyiha ofisi tashkil etildi. Mazkur loyiha ofisiga davlat–xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish sohasida muhim vakolatlar yuklatilganligi, jumladan, Davlat–xususiy sheriklik jamg'armasiga kelib tushayotgan mablag'lardan samarali va maqsadli foydalanishni tashkil etish ushbu yo'nalishning strategik ahamiyatidan dalolat beradi; davlat–xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida xalqaro moliya tashkilotlari va xorijiy tijorat banklari ishtirokida to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armalarini tashkil etish talab qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

DXSh asosida loyihalarni boshqarishni takomillashtirish bo'yicha takliflar:

- DXSh bo'yicha yagona milliy standartlarni ishlab chiqish;
- shartnoma modellari va risklarni boshqarish bo'yicha metodikalarni takomillashtirish;
- ochiq ma'lumotlar asosida tender jarayonlarini shaffoflashtirish;
- kafolatlar, soliq imtiyozlari va subsidiyalar orqali xususiy investorlarni jalb etish;
- DXSh loyihalari uchun maxsus investitsiya fondi tashkil etish;
- xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish;
- DXSh, loyiha boshqaruvi va iqtisodiy tahlil bo'yicha maxsus o'quv kurslarini joriy etish;
- mahalliy mutaxassislarni xalqaro tajriba almashinuvi dasturlariga jalb qilish;
- DXSh loyihalarining yagona raqamli platformasini yaratish;
- sun'iy intellekt asosida risklarni baholash va monitoring qilish;
- loyihalarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha avtomatlashtirilgan tizimlar yaratish.

Davlat–xususiy sheriklik asosida ijtimoiy ahamiyatli loyihalarni boshqarish O'zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishi, ijtimoiy infratuzilmaning modernizatsiyasi va aholi turmush darajasining oshishida muhim o'rin egallaydi. DXShning institutsional, tashkiliy va moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish orqali loyihalar samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Shu bois, mazkur sohada kompleks islohotlarni izchil amalga oshirish, innovatsion yondashuvlarni keng qo'llash va xususiy sektor imkoniyatlaridan to'liq foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida 2024 — 2030-yillarda davlat–xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-308-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7089556>
2. A. Turaev, A. Nigmonov. Davlat–xususiy sherikligi: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020.

2 <https://lex.uz/uz/docs/-7089556>



3. B. Abdukarimov. O'zbekistonda davlat–xususiy sheriklikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. – Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar jurnali, 2021.
4. M. Mamatqulov. Ijtimoiy infratuzilmada DXSh loyihalarining samaradorligini baholash. – TDIU Ilmiy Axborotlari, 2022.
5. E.R. Yescombe. Public–Private Partnerships: Principles of Policy and Finance. – London: Elsevier, 2007.
6. G. Hodge, C. Greve. The Politics of Public–Private Partnerships. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2005.
7. OECD. Public–Private Partnerships for Infrastructure: Principles for Good Governance. – Paris: OECD Publishing, 2012.
8. World Bank. Benchmarking Public–Private Partnerships Procurement. – Washington D.C.: World Bank Group, 2017.
9. A. Akintoye, M. Beck. Policy, Finance and Management for Public–Private Partnerships. – Oxford: Blackwell Publishing, 2009.
10. M. Grimsey, M.K. Lewis. Public Private Partnerships: The Worldwide Revolution in Infrastructure Provision and Project Finance. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2004.
11. A. Turaev, A. Nigmonov. Davlat–xususiy sherikligi: Nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020.
12. B. Abdukarimov. O'zbekistonda davlat–xususiy sheriklikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: TDIU Nashriyoti, 2021.
13. EIB. The Guide to Guidance: How to Prepare, Procure and Deliver PPP Projects. – Luxembourg: European Investment Bank, 2018.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
